

DALILLARNI QAYD ETISHDA YORDAMCHI USULLARDAN FOYDALANISH

Kurambaev Toxir Xosinbaevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Tergov faoliyati” kafedrasi o'qituvchisi

Malikov Asilbek Abdusalom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11147480>

Annotatsiya: Ishni sudga qadar yuritish bosqichida dalillarni to'plash bo'yicha tergov faoliyatini tashkil etish va amalga oshirilishi jarayonida vujudga keladigan xamda yechimini talab etuvchi muammolarni o'rganish ishni sudga qadar yuritishda dalillarni to'plashning hozirgi kundagi umumiy axvoli. Ishni sudga qadar yuritishda dalilarni to'rlashga ma'sul bo'lgan davlat organlarining dalillarni to'plash bo'yicha faoliyati hamda uning huquqiy asoslari dalillar yig'ish ularni prosessual mustahkamlashda yordamchi usullardan foydalanish masalalari taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: dalil, tergov, dalillarni to'plash, dalillar yig'ish, ishni sudga qadar yuritish, tergov harakati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin amalga oshirgan eng muhim ishlardan biri bu sud-huquq tizimini isloh qilish bo'ldi. Buning natijasida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari hamda inson huquq va erkinliklari ustunligi prinsipi asosida qayta ko'rib chiqildi. Jinoyat protsessual kodeksida fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishning samarali tizimi yaratildi. Shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga kelib tushgan ariza va xabarlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning tartibi belgilandi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, himoyachi ham isbotlash jarayonida faol ishtirok etib, dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni, ya'ni:

- ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish;

- davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar (ya'ni holat yuzasidan batafsil ma'lumot yoki qoidaning sharhi) va boshqa hujjatlarni olishga haqlidir¹. Lekin, himoyachining himoya pozitsiyasini shakllantirish uchun foydalanadigan dalil to'plash usullarini “tergov harakati” deb baholab bo'lmaydi.

Jinoyat prosessida jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishga erishish uchun haqiqatda qanday hodisa yuz berganligini, jinoyatni kim va qanday holatlarda sodir etganligini aniqlanishi isbot qilinishi dalillar vositasida amalga oshirilib dalillarga shunday bir talablar qo'yiladiki, ularsiz dalillardan jinoyat-protsessual isbot qilishda foydalanib bo'lmaydi.

Dalillarni qayd etish uchun bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv,

¹ <https://lex.uz/docs/-3895986> - Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarori

kinotasvir, fotosuratgatushish, qoliplartayyorlash, nusxalarolish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aksettirishning boshqausullari qo'llanilishi mumkin xisoblanib bundan tashqari tergovchi dalillarni mustahkamlashning bu usullarini qo'llanishga ko'maklashish uchun mutaxassislarni jalb etishi mumkin xisoblanadi. Tergovchi tomonidan dalillarni qayd etishning qanday usullari qo'llangani, foydalanilgan apparatlar, asboblar, uskunalar, materiallarning texnikaviy tavsifi keltirilib, tegishli tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Tergovharakatining borishi va natijalari aks ettirilgan fotosuratlar, fonogrammalar, videoyozuvlar, kinotasvirlar, qoliplar, nusxalar, rejalar, sxemalar va boshqalar bayonnomaga ilova qilinadi. Har qaysi ilovada tergov harakatining nomi, o'tkazilganjoyi, sanasi ko'rsatilgan izohlovchi matn bo'lishi lozim. Quyidagi protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart:

- 1) o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;
- 2) tintuv;
- 3) ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;
- 4) tergov eksperimenti;
- 5) shaxsni ushlash;
- 6) himoyachidan voz kechish;
- 7) shaxsni ushlash jarayonida o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish.

Ushbu qoidada 5- 7-bandlarida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni videoyozuv orqali qayd etish jinoyat protsessual Kodeksda belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi².

Ba'zan dalillarning maqbulligi buzilish xolatlari masalan, tergov harakatlari o'tkazish chog'ida protsessual rasmiylashtirish holatlarida buzilishlarga yo'l qo'yilgan xatolar davomida dalillar maqbulligi buziladi. Tergovchi dalillarning barcha tomonlarini – ularning mazmunini, protsessual rasmiylashtirish usullarini dalillar manbalarini analiz qilishlari lozim. Tergovchi Ilgarigi tekshiruv davomida aniqlanmagan, tergovchida shubha tug'dirgan dalilning har qanday sifatlari, xususiyatlari va aloqalari tadqiq etilishi lozim . Lekin ko'rsatmalarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish hamda eksperiment tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish imkoni mavjud emas ammo ushbu ikki tergov xarakat video tasvir olish mumkin hisoblanadi. Xususan, dalil to'plash paytida yo'l qo'yilgan qonun buzilishi sababli nomaqbul deb topilgan ayrim dalillardan isbot qilishda tegishli protsessual harakatlar belgilangan talablarga amal qilgan holda o'tkazilgandan so'ng foydalanish mumkin (masalan, tergov yoki sud harakati o'tkazish bayonnomalarida ayrim ma'lumotlar yoki bandlarning yo'qligi, basharti bu kamchilikni xolislar, ushbu harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa, tergovchini so'roq qilish orqali bartaraf qilish imkoniyati bo'lsa). Ko'pincha bu qoida qonun bilan belgilangan dalillarni qayd etadigan protsessual shaklga tegishlidir. Guvoh, garchi u o'zini so'roq qilish bayonnomasiga tergovchi aybi bilan imzo chekmagan bo'lsa, tergov borasida bergan o'z ko'rsatmalari to'g'ri yozilganligini sudda tasdiqlashi mumkin; xolis ko'zdan kechirish o'tkazilishidagi o'z ishtirokini guvohlantirishi mumkin; uning ko'rsatmalari tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarni so'roq qilish orqali tasdiqlanishi mumkin va hokazo.

Yuqoridagilar protsessual shaklga rioya etish talabini qandaydir ahamiyatini tushurish, uni

² <https://lex.uz/docs/-111460> – O'zbekiston respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi

mensimaslik deb baholanishi kerak emas. Shu o'rinda aytish mumkinki, protsessual shaklga rioya etmaslik prokuror yoki sud tomonidan ishni qo'shimcha tergovga qaytarishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 385-moddasi 3-qismi); yuqori instansiya sudi bunda jinoyat-protsessual normalarni jiddiy buzilishi deb e'tirof etib hukmni bekor qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 487-modda)³.

Shu bilan birga, nomaqbul, deb topilgan ayrim dalillarni, ularning yuridik tabiatiga ko'ra, tiklashning imkoniyati yo'q (masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo'lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmay turib takroran so'roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko'rsatish v.h.). Bu esa, isbot qiluvchi subektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, har qanday jinoyat shuni tahlil qilayotganda undagi jinoiylik darajasini asoslanayotganda uni isbotlash, dalillarga, faktlarga asoslanishni talab qiladi. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida dalillar muhim ahamiyatga yega bo'lib, jinoyat ishi bo'yicha har tomonlama, to'liq, qonuniy, to'plangan tekshirilgan dalillargina ahamiyatli hisoblanadi va faqat ana shunday dalillargina shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

References:

1. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факультети. – 2009. Б. 66-69.*
2. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.*
3. *Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015 й. Б. 34-40.*
4. *Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24*
5. *Б.Б.Муродов. Предварительное следствие в органах внутренних дел. Учебник. Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. 395 Б.*
6. *Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга ҳилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10-сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.*
7. *Ш.Ш.Суюнов. Компьютер техника воситалари орқали содир этилган firibgarlik jinoyati turlari. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy*

³ <https://lex.uz/docs/-111460> – O'zbekiston respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi

konferensiyasi. 9.06.2023 йил <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019653> Б. 45-48.

8. *Ш.Ш.Суюнов.* Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019766> Б. 60-62.

9. *Ш.Ш.Суюнов.* Some aspects of qualifying drug-related crimes. Корея Республикасининг “Digital Fashion Conference” журнали 5.10.2022 йил Б. 13-15

10. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

11. *А.Т.Аширбоев.* Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперт-криминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

12. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. – 95-98 б.

13. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини содир этиш изларининг юзага келиш механизмларининг ўзига хос жиҳатлари. Сиёсатшунослик, ҳуқуқ ва халқаро муносабатлар журнали. 2023 йил.

14. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳнинг била туриб ёлғон кўрсатув бериши сабаблари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.

15. *А.Й.Абдуллаев.* Гувоҳ ва жабрланувчини сўроқ қилишнинг тактик жиҳатлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2022 г.

16. *А.Й.Абдуллаев.* Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятининг сабаблари ва уни содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар (Хоразм вилояти мисолида). Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.